



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI KAFEDRASI**

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich  
tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan  
“O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va  
ularni echish yo‘llari” mavzusidagi  
Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

*Республиканская научно-практическая конференция,  
посвященная 85-летию академика  
Искандарова Тулкина Искандаровича  
«Актуальные проблемы экологии Республики Узбекистан и  
пути их решения»*



**Toshkent – 2024**

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich  
tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan  
“O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo‘llari”  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrası**



**Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich  
tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan  
“O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb  
muammolari va ularni echish yo‘llari” mavzusidagi  
Respublika ilmiy-amaliy anjumani**

*Toshkent shahrida 2024 yil 25 aprelda  
o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman  
materiallari to‘plami.*

**Toshkent -2024**

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich  
tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan  
“O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo‘llari”  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**Tahrir hay’ati:**

- Boymurodov Sh.A.** - Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b, t.f.d., professor
- Iskandarova G.T.** - Toshkent tibbiyot akademiyasi Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini mudiri, t.f.d., professor
- Samigova N.R.** - Toshkent tibbiyot akademiyasi Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini dotsenti, t.f.n.
- Tashpulatova M.N.** - Toshkent tibbiyot akademiyasi Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini katta o‘qituvchisi, PhD

**Moderatorlar:**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini dotsentlari:

**Kurbanova Sh.I., Yusupxo‘jayeva A.M.;**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini assistentlari:

**Rashidov V.A., Xadjayeva U.A., Yulbarisova F.A.**

To‘plamga 2024-yil 25-aprelda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo‘llari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari kiritilgan.

*To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifati uchun  
muallif(lar) javobgardir.*

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich  
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan  
"O'zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo'llari"  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

ajratish va bir-biri bilan korrelyatsion bog'liqliligini gigiyenik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilish hamda manzilli chora-tadbirlar bilan birgalikda ratsion ishlab chiqishga asos bo'ladi.

**XULOSA.** Ishchilarning kasbiy kasallanishining oldini olish va mehnatini himoya qilishda tibbiyot ilmiga va birinchi darajada - mehnat gigiyenasiga katta rol tegishli bo'lib, uning zimmasiga korxonalarda ogohlantiruvchi va joriy sanitar nazorati o'tkazish, gigiyenik normativlar ishlab chiqish (yo'l qo'yiladigan va optimal), mehnatni tarangligi va og'irligini baholash, kasbiy kasalliklarni yo'qotish bo'yicha kompleks sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish yuklatilgan. Tadqiqodlar shuni ko'rsatadiki, polimer ishlab chiqarish korxonalari ishchilar ovqatlanishini qat'iy nazorat ostiga olish, ular uchun to'g'ri ovqatlanish ratsionini tuzib berish juda ham muhim ahamiyat kasb etadi va bu bizni oldimizda turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**TUG'MA ASAB KASALLIKLARINI SABABLARINI O'RGANISH VA  
ULARNING OLDINI OLIH**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**

**Atrof muhit gigiyenasi kafedrası katta o'qituvchisi,**

**PhD Toshmatova G.A.,**

**2-bosqich talabasi Nazarova N.I.**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan tug'ma asab kasalliklari haqida fikr yuritiladi. tug'ma nerv tizimi kasalliklari turlari, kelib chiqish sabablari, ko'payish sabablari, uning zo'rayishini oldini olish chora-tadbirlari va sog'lom oilalarda bo'lmasligini taminlash kabi maslahatlar va bir qator yechimlar ko'rib chiqiladi.

**Annotation:** This article discusses the current development of congenital neurodegenerative diseases. types of congenital nervous system diseases, causes of

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich  
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan  
"O'zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo'llari"  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

origin, causes of reproduction, measures to prevent its exacerbation, and advice and a number of solutions to ensure that it does not occur in healthy families are considered.

Nevrologiya faniga bundan ming yil ilgari Abu Ali ibn Sino asos solgan bo'lib, faqat XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Yevropa tibbiyotidan nevrologiya fani bo'lib ajralib chiqqan. Abu Ali ibn Sino birinchi bo'lib umumiy nevrologiya bilan xususiy nevrologiyani ajratib berdi, inson a'zolarining faoliyatini ularning tuzilishi bilan chambarchas bog'liq ravishda bayon qildi. Shu bilan birga a'zolari bosh miya va itoatkor a'zolarga bo'lib chiqqan, bosh (markaziy) a'zolarga bosh va orqa miyani kiritdi. Bosh miyani his-tuyg'ular va harakatning boshlang'ich a'zosi deb ta'riflagan. Bosh miya anatomiyasini bayon qilgan. Ibn Sino bosh miyani «ong markazi» deb ta'riflaydi. Bu a'zoda fikr paydo bo'ladi, fikrdan esa bilim tug'iladi. Ichki a'zolarining faoliyati, ishlash tarzi ham bosh miyaga bog'liq. Ibn Sino orqa miya anatomiyasi va fiziologiyasini chuqur o'rganib, shunday yozgan edi: «yaratuvchi... bosh miyaning bir qismini pastga (tananing pastki qismiga) tushirib, insonga muruvvat ko'rsatdiki, undan ajralgan asablar mayda tarmoqlarga bo'linib, o'z vazifalarini bemalol, uzluksiz bajo keltiradilar». Ibn Sino «Tib qonunlari» kitobida periferik asab tizimining anatomiyasi va fiziologiyasini tasvirlab bergan. Periferik asablarni Ibn Sino quyidagicha ta'riflaydi: «asablar bosh miyadan yoki orqa miyadan boshlanib, mayda, yumshoq o'tkazgichlardan iborat.

**O'rganish maqsadi:** Hozirgi kunda asab tizimi anomaliyalari bilan tug'ilishlar sonining ko'pligi va buni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar.

**Olingan natijalar:** Ekzogen omillarga ekzogen omillarning zararli ta'siridan kelib chiqadigan nuqsonlar kiradi. Xomilaning prenatal rivojlanish mexanizmlarining buzilishi natijasida yuzaga keladigan tug'ma multifaktorial malformatsiya-homiladorlikning 21-28 kunida homila asab naychasining shakllanishidagi buzilishlar (asab naychasining oldingi neyroporasining yopilishi anansezaliya kasalligi kelib chiqadi).Malformatsiya 100% o'limga olib keladi,

*Akademik Iskandarov Tulkin Iskandarovich  
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan  
"O'zbekiston Respublikasi ekologiyasining dolzarb muammolari va ularni echish yo'llari"  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

anensefali bo'lgan mevalarning 50% bachadonda nobud bo'ladi, qolgan 50% bolalar tirik tug'iladi va 66% hollarda bir necha soat yashashi mumkin, ba'zilari taxminan bir hafta yashaydi. Anensefallar orasida "uzoq jigar" Stefani Kin bo'lib, u Baby Kay laqabli, bu tashxis bilan 2 yil 174 kun yashagan. Bundan tashqari ham ko'plab kasalliklar mavjud bo'lib epilepsiya kasalligining o'zi dunyoda global homiladorlar kasalligi hisoblanadi.

**Xulosa:** Neyrorivojlanish anomaliyalari juda o'zgaruvchan. Natijada, umumiy amaliyot shifokorlari va terapevtlari bilan shug'ullanadigan bemorlarni tashxislash va davolashda qiyinchiliklar mavjud. Bunga neyrokutan sindromlardagi visseral o'smalar yoki Daun sindromidagi leykemiya misol bo'la oladi. Ushbu kasalliklarni bilish bemorning muammolarini tushunish va unga kerakli tibbiy yordam ko'rsatish uchun muhimdir.

**HOZIRGI KUNDA HAVONING IFLOSLANISHI VA BUNING  
NATIJASIDA INSON ORGAIZMIDA KELIB CHIQUADIGAN  
KASALLIKLAR**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**

**Atrof muhit gigiyenasi kafedrasi katta o'qituvchisi,**

**PhD Toshmatova G.A.**

**2-bosqich talabasi Nazarova N.I.**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada hozirgi kunda havoning ifloslanib ketishi haqida fikr yuritiladi. Havoning ifloslanishi darajalari statitikasi va bularning inson organizmiga zarrali tasiri haqida va ularni oldini olishni taminlash kabi maslahatlar va bir qator yechimlar ko'rib chiqiladi.